



BIOLOGIYANI O'QITUSHD A INKLYUZIV TA'LIM

Djabborov Baxtiyor Iskandarovich

BuxDU Biologiya kafedrasi

katta o'qituvchisi

Durdiqulova Osuda

Isayeva Qunduzxon

BuxDU

4 bosqich talabalari

Annotatsiya: maqolada zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan talablar, dars samaradorligini oshirish va qo'llashi kerak bo'lgan texnologiyalar, zamonaviy o'qituvchining zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan ma'lumotlar, inklyuziv ta'lim haqida ma'lumotlar keltirilgan

Kalit so'zlar: zamonaviy, texnologiya, pedagog, interfaol doska, ta'lim platformalari, Google Classroom, Moodle, Edmodo, Elektron baholash, Kahoot, Quizizz, Mentimeter.

**ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ
БИОЛОГИИ**

Джабборов Бахтиёр Искандарович

старший преподаватель

Кафедры Биология БухГУ

Дурдикулова Осуда

Исаева Кундузхон

Студенты 4 курса

БухГУ

Аннотация: В статье представлены сведения о требованиях, предъявляемых к современному учителю, технологиях, необходимых для



повышения эффективности и применения урока, информация, направленная на обеспечение эффективного использования современных технологий современным учителем, информация об инклюзивном образовании

Ключевые слова: *современные, технологии, педагог, интерактивная доска, образовательные платформы, Google Classroom, Moodle, edmodo, электронная оценка, Kahoot, Quizizz, mentimeter.*

INCLUSIVE EDUCATION IN BIOLOGY TEACHING

Djabborov Bakhtiyor Iskandarovich

Senior lecturer

Departments of Biology of BukhSU

Turdikulova Osuda

Isaeva Kunduzkhon

4th year students

BukhSU

Abstract: *The article provides information about the requirements for a modern teacher, the technologies needed to improve the effectiveness and application of the lesson, information aimed at ensuring the effective use of modern technologies by a modern teacher, information about inclusive education*

Keywords: *modern, technology, teacher, interactive whiteboard, educational platforms, Google Classroom, Moodle, edmodo, electronic assessment, Kahoot, Quizizz, mentimeter.*

Keyingi yillarda zamonaviy o'qituvchidan dars sifatini oshirish uchun turli zamonaviy talablar qo'yilmoqda. Bu talablar ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarni ilg'or bilim va ko'nikmalarga ega qilish hamda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Dars samaradorligini oshirishda zamonaviy o'qituvchi quyidagi texnologiyalarni bilishi va dars jarayonida qo'llashi kerak: interfaol doskalar va ta'lim



platformalaridan foydalanish (Google Classroom, Moodle, Edmodo), sun'iy intellekt va virtual laboratoriyalar bilan ishlash, onlayn resurslar va video darsliklar yaratish, elektron baholash tizimlari (Kahoot, Quizizz, Mentimeter) orqali bilimni tekshirish. Shuningdek o'quvchilarga nizbatan -differensial yondashuv va individual ta'limni qo'llay olishi kerak, o'qituvchi turli qobiliyat va ehtiyojga ega o'quvchilarga mos yondashishi kerak, jumladan inklyuziv ta'lim metodlari - maxsus ehtiyojga ega bolalar bilan ishlash, differensial yondashuv - kuchli va sust o'quvchilarga mos topshiriqlar berish, ko'nikmalarga asoslangan o'qitish - faqatgina nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv.

Davlatimiz tomonidan ta'lim sifatini oshirish, uzluksiz ta'lim, xususan o'rta ta'limda samaradorlikni oshirish faqatgina faktlarni o'rgatish emas, balki o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga ham qaratilgan: tanqidiy fikrlash - o'quvchilarga mustaqil tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarishni o'rgatish; ijodiy yondashuv - innovatsion fikrlash va yangi g'oyalarni ilgari surish; muammoni yechish qobiliyati - real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va mos yechim topish; jamoada ishlash va kommunikatsiya - o'z fikrini aniq ifoda qilish va boshqalar bilan ishlash.

Keyingi yillarda ta'lim sohasida tez-tez uchraydigan so'zlardan biri bu- Inklyuziv ta'lim, bu nima degani, chuqurroq o'rganadigan bo'lsak, Inklyuziv ta'lim - bu barcha bolalar, jumladan, jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki boshqa turdagi ehtiyojlari bor bolalar ham, umumiy ta'lim muhitida ta'lim olishlarini ta'minlovchi ta'lim tizimidir, yani turli darajada nogironligi, nuqsoni bor bolalarda hamma qatori, o'rta ta'limda, oliy ta'limda bilim olish imkonidir. Nogironligi yoki boshqa xususiyatlari sababli hech kim ta'limdan chetda qolmasligi kerak, o'quv jarayoni va muhit har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtiriladi, ta'lim jarayonida turli o'quv usullari va metodlar qo'llaniladi, nogironligi bor bolalar boshqa tengdoshlari bilan birga o'qib, ijtimoiy muhitga moslashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Biologioya darslarida o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, dars samaradorligini oshirish juda katta qiyinchilik tug'dirmaydi, fan tabiat,



tirik organizmlar bilan bog'liq bo'lgani sababli harakatli o'yinlar, rolli o'yin texnologiyalari, virtual laboratoriya, audia, vizual taxnikalarni keng qo'llash mumkin.

Shuningdek biologiya fani o'qituvchilarining o'zi ham ta'lim bo'yicha maxsus metodikalar va yondashuvlarga ega bo'lishlari kerak. Inklyuziv ta'lim jamiyatdagi kamsitishlarni kamaytirish, har bir bolaning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ularning teng huquqli jamiyat a'zosi bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Eng asosiysi, barcha o'quvchilar, asosan maxsus ehtiyojga ega bolalar dars jarayoniga to'liq jalb etilishiga erishishdir. Bu o'qituvchidan darsni tashkillashtirishda o'quv muhitini moslashtirishni talab qiladi, masalan; jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun sinf va ta'lim jihozlarini moslashtirish-pastroq partalar, mos keluvchi mikroskoplar, yirik harfli materiallarni tashkil qilish; ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun – Brayl alifbosi, audiomateriallarni tayyorlash, rel'efli diagrammalardan foydalanish; eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilar uchun – taqdimotlar, yozma materiallar va imo-ishora tarjimonidan, rolli va harakatli o'yinlardan foydalanish.

Dars jarayonidan turli imkoniyatli o'quvchilarning dars materiallarini o'zlashtirishini yaxshilashda, multisensor metodlar, laboratoriya mashg'ulotlari, vizual materiallar, organizmning tuzilishi yoki hujayra tuzilishini rel'efli, 3D modellar orqali tushuntirish kabi usullarni qollash samaralidir. Shuningdek, inklyuziv ta'lim o'qituvchidan katta mahoratni, ijodkorlikni talab qiladi, o'qituvchi mavzu kesimidan kelib chiqib differensial yondashuvi, ya'ni turli qobiliyatga ega bolalar uchun turli topshiriqlar berish, qiyin mavzularni oddiyroq tilda tushuntirishi, mustaqil ishlashda kuchli o'quvchilarga murakkabroq vazifalar berish, boshqalarga esa oddiyroq yondashuv qo'llashi, jamoaviy ish orqali o'quvchilar bir-biriga yordam berishini ta'minlashi kerak.

Masalan: oqsil biosintezi mavzusini o'tishda, birinchi toifadagi o'quvchiga “oqsil nima, qanday oqsillar farqlanadi” degan savol bilan, ikkinchi turdasisiga “oqsil biosintezi jarayonini yoritib bering”, mustaqil ishlasg qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilarga “oqsil strukturalarini chizing va tushsuntiring” kabi savollar bilan murojaat qilishi mumkin.



Dars davomida o'quvchilar bir-biriga yordam berishi uchun jamoaviy ish tashkil qilish, turli o'quvchilarning ehtiyojlarini tushunish va ularga hurmat bilan yondashish, muvaffaqiyat hissini shakllantirish - barcha o'quvchilar o'zini dars jarayonida muhim ishtirokchi sifatida his qilishini ta'minlasghi, umuman olganda bir soatlik sarsning jusda yaxshi rejissori bo'lishi kerak. Shunday qilib, inklyuziv ta'lim biologiya darslarida turli o'quvchilarni teng imkoniyat bilan ta'minlashga yordam beradi. Buning uchun moslashtirilgan muhit, interfaol yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va differensial ta'lim usullaridan foydalanish lozim.

Zamonaviy o'qituvchidan nafaqat dars berish, balki o'quvchilarning hayotga tayyorgarligini oshirish, ularga innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim berish talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Namazova M. U. INSONIY FAZILATLAR HAYOTIMIZ KORKI" MAVZUSIDA INSHO, MATN YOZISH ASOSIDA OQUVCHILARNING OGZAKI VA YOZMA NUTQINI OSTIRISH MASALALARI //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – С. 200-202.
2. Жабборов Б. И., Санокулов Р. А. АКТУАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2021. – С. 98.
3. Салимова С. Ф. Бўлажак биология ўқитувчилари касбий компетенциялари шакллланганлик даражасини баҳолашнинг ўзига хос жиҳатлари //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1087-1094.
4. Сафарова З. Т. ХАЛҚ ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРИНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСИДА ҚўЛЛАШНИНГ ФИЗИОЛОГИК АФЗАЛЛИКЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 44-46.
5. Жабборов Б. НАРОДНЫЕ ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ В ВОСПИТАНИИ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – Т. 4. – №. 9. – С. 172-175.
6. Сафарова З. Т., Райимов А. Р., Саидова М. Адаптивное детей к новым социальным условиям //Научный журнал. – 2018. – №. 5 (28). – С. 20-22.



7. САЛИМОВА С. Ф. Бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий компетенциялари шаклланганлик даражасини баҳолашнинг методик тизимини такомиллаштириш //Novateur Publications. – 2023. – №. 11. – С. 1-159.